



## NAVOIY ASARLARINING MATNSHUNOSLIK TADQIQI

**Ne'matova O'g'iloy**

*Filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Navoiy asarlarini matnshunoslik yuzasidan o'rghanish navoishunoslikni yangi bosqichga ko'taradi. Sho'ir asarlari qo'lyozmalari asosida yaratilgan ilmiy matnlarni tahlil qilish va yangi ilmiy matnlarni yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. Matnshunoslikda Navoiy adabiy merosini tadqiq qilish, asarlarining yangi nashrlarini amalga oshirish, kelgusi avlodlarga to'liq va mukammal yetkazish zarur.

**Kalit so'zlar:** Matnshunoslik, manbashunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, qo'lyozma, ilmiy nashrlar, doston, to'plam.

Matnshunoslik, dastlab, mumtoz adiblar, xususan, Alisher Navoiy asarlarini to'plash, ularni tadqiq etish hamda nashrga tayyorlash ishlari bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik yangi tarmoqlar hisobiga kengayib bordi. Bugungi kunda matnshunoslik sohasi manbashunoslik bilan birga yanada rivojlanib, zamonaviy filologik masalalar yechimida muhim vazifalarni amalga oshirmoqda. O'zbekistonda ilmiy matnshunoslikning rivojlanishi buyuk o'zbek sho'iri va mutaffakkiri Alisher Navoiy asarlarining chop etilishi bilan bog'liq. Navoiy asarlarining nashrga tayyorlanishi jiddiy ravishda 1938-yildan boshlab, sho'ir tug'ilgan kunning 500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik bilan bog'liq holda hal etila boshlandi. Bunday vazifa sho'ir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnni yaratishni taqozo etar edi. Shunday qilib, turli fond va shaxsiy kutubxonalarda tarqalib ketgan Navoiy asarlarining qo'lyozmalarini yig'ish va tasnif qilish ishlari boshlab yuborildi.

Xususan, professor A. A. Semyonov Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi Sharq bo'limida saqlangan Navoiy asarları qo'lyozmalarining, S.L.Volin Leningrad fondlarida saqlanayotgan Navoiy asarlarining sharhini tuzdi. Ilmiy tanqidiy matnlarni tuzishdan oldin Navoiyning asarlar mavjud qo'lyozmalar asosida nashrga tayyorlandi. Ular hozirgi zamon o'zbek tilida nasriy izoh bilan ham chiqarildi. U vaqtida, garchi ilmiy-tanqidiy matn tuzish masalasi kun tartibida turgan bo'lsa-da, uning prinsiplari hali ishlab chiqilmagan edi. 1940-yillarda o'zbek mutaxassisleri Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnni tuzishga kirishdilar. S. M. Mutallibov "Hayrat ul-abror"ning, G'. Q. Karimov "Layli va Majnun"ning ilmiy-tanqidiy matnni tayyorladi. Bu matnlar Navoiy merosini tekstologik jihatdan o'rghanishda dastlabki qadam sifatida qaralishi mumkin. Bu matnlarni tayyorlashda noshirlar uch qo'lyozma va keyingi yillarda chiqarilgan bosma nusxani asos qilib oldilar. 1948-yilda turkolog olim A. N. Kononov tomonidan "Mahbub ul-qulub"ning chog'ishtirma matni tayyorlandi va nashr ettirildi. Bir yil keyin "Mezon ul-avzon"ning ilmiy-tanqidiy matni I. Sultonov tomonidan tayyorlandi. Shu tarzda biz Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini



nashr etdik. Navoiy asarlarining, masalan, "Muhokamat ul-lug'atayn"ning ilmiyishonchli matnnini yaratishda tuzuvchilar, qadimgi qo'lyozmalarning hali topilmagani sababli, o'sha asarlarning bosma va litografik nusxalaridan foydalandilar. Xususan, S.G'aniyevaning ko'p yillik mehnati natijasida Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi.

O'zbek matnshunosligida Navoiy adabiy merosini tadqiq qilish, asarlarining yangi nashrlarini amalga oshirish, kelgusi avlodlarga to'liq va mukammal yetkazish muhim masala hisoblanadi. Albatta, bu borada mashhur o'zbek matnshunoslari haqiqiy maktab yaratishgan. Shu boisdan, Navoiy asarlarini matnshunoslik yuzasidan o'rganish nechog'lik muhim bo'lsa, bu tadqiqotlarning yuzaga kelish jarayonini o'rganish shunchalik ahamiyatlidir. Ma'lumki, Respublikamizda ilmiy-tanqidiy matn tuzish ishlari, asosan, Alisher Navoiy tavalludining 500 va 550 yilligi munosabati bilan boshlandi. Bu davr mobaynida Navoiyning o'ndan ortiq asarlari, jumladan, "Hayrat ul-abror" dostoni Porso Shamsiyev tomonidan ilmiy-tanqidiy matn ko'rinishida tayyorlanib, chop ettirildi. Shu bilan birga navoiyshunos olimlar – H. Sulaymon, N. Mallayev, A. Hayitmetov, A. Qayumov, I.Haqqul va boshqalarning bir qancha tadqiqotlari ham e'lon qilindi. Bu tadqiqotlar shoir asarlarining asliyatini tiklash borasidagi ishlarni davom ettirdi. Holbuki, o'zbek matnshunosligi taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlar faoliyatini o'rganish, nashr va ilmiy-tanqidiy matn tuzish borasidagi tajribalarini o'zlashtirish matnshunoslik sohasida yangi qarashlarning shakllanishida, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishda, umuman, sohadagi mavjud muammolarning yechimini topishi kerak. Ayniqsa, Navoiy asarlarining akademik nashrlarini maydonga keltirishda, ilmiy-tanqidiy matnlar asoslarini ishlab chiqishda matnshunos olimlar faoliyatini o'rganish har jihatdan foya beradi. Xususan, Alisher Navoiy ijodining cho'qqisi bo'lgan "Xamsa" dostonlari ilmiy-tanqidiy matnlarini chuqur tadqiq qilish, uni takomillashtirish yo'llarini ilmiy asosda belgilash yuqori ilmiy natijalar beradi.

Dostonning ilmiy-tanqidiy matniga doir tadqiqotlar olib borish, matnshunoslikning nazariy asoslarini yaratish aniq mezonlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Navoiy "Xamsa"si o'sha davrning eng dolzarb masalalarini va ularga shoirning yorqin munosabatini aks ettiradi. Navoiy gumanistik pozitsiyada mahkam turib, ko'p masalalarni hal qilishda jamiyatning ko'pchiligini tashkil qilgan oddiy tabaqa manfaatlarini nazarda tutadi,adolat, tinchlik, ma'rifat, vatanparvarlik, xalqlar, elatlar orasida do'stlik, muhabbat, aql, ilm va san'atga muhabbatni yuksak kuylaydi, jaholat va zulmni qattiq qoralaydi. Uning bunday hayotiy mushohadalar shu qadar samimiy va chuqur, ta'sirchan

va originalki, natijada u hamma keyingi avlodning ham diqqatini o'ziga tortdi, hamisha ilm va san'at, estetik tafakkur taraqqiyotiga xizmat etdi. Shuning uchun ham ular yuzlab qo'lyozmalarda ko'chirilgan, bosma nusxlarda nashr etilgan. Navoiy "Xamsa"sigi turli ijtimoiy qatlamlarning munosabati turlicha bo'lib, uni o'z manfaatlariga, qarashlariga moslashtirishga harakat qilganlar. "Xamsa" qo'lyozmalaridagi ba'zi har xilliklar, qisqartish, o'zidan qo'shishlarning asosiy sababi



ham shu bilan bog'liq. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Navoiy asarlari qo'lyozmalarini o'rganish va ularning tanqidiy matnlarini tayyorlash borasidagi mazkur ishlar o'z davomchilarini kutmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yagona – Navoiyning tilini sof holicha kelgusi avlodlarga yetkazish.

Demak, "Xamsa" dostonining qo'lyozmalarini, ilmiy-tanqidiy matnlarni, umuman olganda, barcha chop etilgan nashrlarni o'rganish jarayonida Navoiy asarlarining asl tili va mazmunini saqlab qolishga intilmoq darkor. Zero, nashrlarda mazmuni, g'oyasi va til xususiyatlari noaniq bo'lgan o'rinalar ko'pligi, bu sohada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar bisyor ekanligidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu ulug' zot to'g'risida quyidagi fikrlarni bejizga keltirmagan: "Mutafakkir shoirimizning "Odamiy ersang, demgil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami", degan satrlarda qanchalik chuqur ma'no bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliv mezonidir. Xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb uqtirmoqda ulug' bobomiz"<sup>30</sup>. Alisher Navoiy merosining yuksakligi uning janr xilma xilligida yoki asarlarining miqdorida emas, balki undagi g'oyalarning o'ziga xosligida hamdir. Shu jihatdan ham, Zahiriddin Muhammad Bobur u zotning asarlariga nisbatan "ko'p va xo'p" deya ta'rif bergen. Navoiy asarlaridagi o'tkir falsafiy qarashlar hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. "Ulug' shoir ijodiy merosi xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, yosh avlodni vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi"<sup>31</sup>.

Navoiyning "Xamsa" dostonlari qo'lyozmalarini o'rganish va nashr etish yangi bosqichga ko'tarilishi lozim. Bugungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar, nashrlar shuni ko'rsatadiki, bu borada qilinishi zarur bo'lgan ishlar talaygina. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydag'i PF – 4797-sun "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida" gi farmoni<sup>32</sup> hamda 2020 yil 19 oktabrdagi PQ – 4865-sun "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida "gi qarorlari<sup>33</sup> belgilangan vazifalarni to'kis ado etilishini ta'minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 112.
2. Мирзиёев Ш. М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ безавол яшайди. Халқ сўзи, 2019 йил 19 февраль.

<sup>30</sup>Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 112.

<sup>31</sup>Мирзиёев Ш. М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ безавол яшайди. Халқ сўзи, 2019 йил 19 февраль.

<sup>32</sup><https://www.academy.uz/uz>.

<sup>33</sup><https://lex.uz/docs/-5054929>.



3. Аҳмадхўжаев Э. Мерос дурдоналари (Лутфий девонининг илмий-танқидий матнини тузишга жалб қилинган қўлёзма нусхалар)// Адабий мерос, – Т.: 1985. №2. Б. 146-152.
4. Алишер Навоий. Асарлар. XV томлик. Т. VI том. (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар автори П. Шамсиев.) – Т.: “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти. 1965. – 268 б.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. II том. Э.И.Фозилов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1983. – 644 б.